
TOSHLOQ TUMANIDA TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUV BO‘LIB O‘TDI

El farovonligi, yurt taraqqiyotida tadbirkorlikning o‘rni beqiyos. Tumandagi “Nayman” MFYda joylashgan Madaniyat uyida Viloyat prokuraturasi, viloyat davlat soliq boshqarmasi hamda viloyat adliya boshqarmasi rahbarlari tomonidan tadbirkorlar muammo va takliflarini o‘rganish maqsadida uchrashuv tashkil etildi. Unda tumanda faoliyat yuritayotgan ko‘plab tadbirkorlar ishtirok etdilar.

Uchrashuvda tadbirkorlarni taklif va muammolari o‘rganildi. Muddat talab qiladigan murojaatlar yechimini topish yuzasidan mutasaddilarga qat‘iy topshiriqlar berildi.

Xususan, tadbirkorlar tomonidan bildirilgan kredit, yer, soliq, tadbirkorlik faoliyati, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar olishda duch kelayotgan ayrim muammolar, to‘siqlar hamda boshqa masalalarga oid murojaatlar qabul qilinib, ularni qisqa fursatlarda hal qilish yuzasidan mas‘ullarga topshiriqlar berildi.

2024-07-23 11:44:01